

**MEDICINE
PROBLEMS**

.uz

ISSN 3030-3133

**TIBBIYOT FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL
SCIENCES**



N° 3 (4)

2026



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>
ISSN: 3030-3133

MEDICINEPROBLEMS.UZ
TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI

№ 3 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR:

ISANOVA SHOIRA TULQINOVNA- Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

TIBBIYOT FANLARI

Safarov Zafar Fayzullayevich –tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xakimov Murod Shavkatovich –tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Mavlanov Alimbay – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ergashev Nasriddin Shamsiddinovich - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent pediatriya instituti;

Abdullayeva Nargiza Nurmamatovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Djurabekova Aziza Taxirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Xaydarova Dildora Kadirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ruziboyev Sanjar Abdusalomovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Sattarov Oybek Toxirovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Niyozov Shuxrat Tashmirovich - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Shomurodova Dilnoza Salimovna - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Tavasharov Bahodir Nazarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Xalmetova Feruza Iskandarovna – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

G'aybiyev Akmaljon Axmadjonovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Qo'ziyev Otabek Juraqulovich – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Ergasheva Munisa Yakubovna - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ollanova Shaxnoza Sirlibayevna – tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Safarov Zafar Fayzullayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xayitov Ilxom Bahodirovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Alimov Suxrob Usmonovich- tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Fozilov Uktam Abdurazzokovich - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Raximov Oybek Umarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya instituti;

Sattarov Inayat Saparbayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Abidov O'tkir O'ktamovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Amonova Zaxro Qaxramon qizi - tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

FARMATSEVIKA FANLARI

Zulfikariyeva Dilnoza Alisherovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Toshpo‘latova Azizaxon Dilshodovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Xusainova Rayxona Ashrafovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Maksudova Firuza Xurshidovna farmatsevtika
fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent
farmatsevtika instituti;

Ziyamuxamedova Munojot Mirgiasovna -
farmatsevtika fanlari doktori, Toshkent
farmatsevtika instituti, dotsent v.b.;

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna –
farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent farmatsevtika instituti;

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB

MASALALARI elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

Pirnazarova Gulchehra

BOLADA SURUNKALI YALLIG'LANISHLI VA EHTIMOLIY AUTOIMMUN JARAYONLARNI RIVOJLANISHI FONIDA, SEPSIS VA POLIORGAN YETISHMOVCHILIGI BILAN ASORATLANGAN OG'IR PNEVMONIYANING LETAL YAKUNI (klinik holat va adabiyotlar sharhi) 5-8

Artikova Dilfuza

QANDLI DIABET 2-TURI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA DIABETIK TO'PIQ SINDROMINING ISHEMIK SHAKLINI TOPIK DIAGNOSTIKA QILISH XUSUSIYATLARI 9-14

Norboev Xolmamat, Xudoyqulov Jonibek

KARANTIN VA O'TA XAVFLI YUQUMLI KASALLIKLAR BILAN ISHLASHDA KIYILADIGAN MAXSUS SHAXSIY HIMOYA KIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR 15-20

Sultonova Gulrukh, Saloni Sajid

INTEGRATING CLINICAL REASONING AND PREDICTIVE MODELLING IN ADULT FEBRILE ILLNESS: A CASE REPORT 21-27

Matnazarova Gulbahor, Saidkasimova Nargiza, Jumaniyozova Maxfira

XORAZM VILOYATIDA 2014–2024-YILLARDA Salmonella enteritidis KELITIRIB CHIQARGAN SALMONELLYOZ KASALLIGINING HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI 28-34

Article / Original Paper

KARANTIN VA O'TA XAVFLI YUQUMLI KASALLIKLAR BILAN ISHLASHDA KIYILADIGAN MAXSUS SHAXSIY HIMOYA KIIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Norboev Xolmamat Nuralievich

Respublika o'lat profilaktika markazi direktori

Tel: +998909527161

E-mail: j.xudoyqulov@tashmeduni.uz

Xudoyqulov Jonibek Bozorovich

TDTU Epidemiologiya kafedrasida assistenti

Tel: +998775351777

E-mail: j.xudoyqulov@tashmeduni.uz

ORCID: 0009-0000-1393-1689

Annotatsiya. Ushbu maqolada karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlashda qo'llaniladigan maxsus shaxsiy himoya kiyimlariga qo'yiladigan asosiy talablar o'rga nilgan. Xususan, o'latga qarshi xalat, qo'lqoplar, himoya poyabzali, ko'z va yuzni himoya qiluvchi ekranlar, shuningdek, niqob va respiratorlarning himoya xususiyatlari, material sifati, konstruksiyasi, gigienik talablari hamda qo'llash qoidalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, sanitariya qoidalari, JSST tavsiyalari va ilmiy adabiyotlar asosida tahliliy hamda solishtirma usullardan foydalanildi. Olingan natijalarga ko'ra, maxsus shaxsiy himoya vositalarining samaradorligi ularning sifatli materialdan tayyorlangani, belgilangan talablarga muvofiqligi va ulardan to'g'ri foydalanish bilan bevosita bog'liq ekanini aniqlandi. Maqolada karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri tanlash, qo'llash, dezinfeksiya qilish, saqlash va utilizatsiya qilishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: karantin, o'ta xavfli yuqumli kasalliklar, maxsus shaxsiy himoya vositalari, o'latga qarshi xalat, respirator, qo'lqop, himoya poyabzali, yuz himoya ekrani, infeksiyon xavfsizlik.

REQUIREMENTS FOR SPECIAL PERSONAL PROTECTIVE CLOTHING USED WHEN WORKING WITH QUARANTINE AND HIGHLY DANGEROUS INFECTIOUS DISEASES

Norboev Xolmamat Nuralievich

Director of the Republican Center for Plague Prevention

Khudoykulov Jonibek Bozorovich

Assistant of the Department of Epidemiology, TDTU

Annotatsiya. This article examines the main requirements for special personal protective clothing used when working with quarantine and highly dangerous infectious diseases. In particular, the protective properties, material quality, design features, hygienic requirements, and rules of use of anti-plague suits, gloves, protective footwear, eye and face protection equipment, as well as masks and respirators are analyzed. The study employed analytical and comparative methods based on regulatory documents, sanitary rules, recommendations of the World Health Organization, and scientific literature. The results showed that the effectiveness of personal protective equipment directly depends on the quality of materials, compliance with established standards, and proper use. The article substantiates the importance of proper selection, use, disinfection, storage, and disposal of personal protective equipment for specialists working with quarantine and highly dangerous infectious diseases.

Kalit soʻzlar: quarantine, highly dangerous infectious diseases, personal protective equipment, anti-plague suit, respirator, gloves, protective footwear, face protection, infection safety.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Med-pro/v4i3y2026/N03>

Kirish Bugungi kunda yuqumli kasalliklar inson salomatligi va jamiyat xavfsizligi uchun katta tahdid solmoqda. Ayniqsa, karantin va oʻta xavfli yuqumli kasalliklar — oʻlat, vabo, tulyaremiya, kuydirgi, virusli gemorragik isitmalar, COVID-19 kabi kasalliklar inson hayoti uchun jiddiy xavf tugʻdiradi. Bunday kasalliklar tez tarqalish xususiyatiga ega boʻlib, epidemiya va pandemiyalarga olib kelishi mumkin. [1] Karantin va oʻta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlash tibbiyot xodimlari, laboratoriya mutaxassislari va epidemiologlar uchun yuqori darajada xavfli hisoblanadi. Shuning uchun bunday kasalliklar bilan ishlashda maxsus shaxsiy himoya vositalari (MSHHV)dan foydalanish talab qilinadi. Shaxsiy himoya kiyimlari insonni biologik patogenlar, kimyoviy moddalar va boshqa xavfli omillar taʼsiridan himoya qilishga xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifasi infeksiyaning laboratoriya xodimlariga yuqishini oldini olish, infeksiya tarqalish xavfini kamaytirish va xavfsiz ish sharoitini taʼminlashdan iborat. [2]

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, laboratoriyada yuqqan infeksiyalarning katta qismi shaxsiy himoya vositalaridan notoʻgʻri foydalanish yoki ulardan umuman foydalanmaslik natijasida yuzaga keladi. Shu sababli SHHVni toʻgʻri tanlash va undan foydalanish qoidalariga qatʼiy rioya qilish muhim ahamiyatga ega. [3]

Tadqiqot maqsadi: zbekiston sharoitida Karantin va oʻta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlashda kiyiladigan maxsus shaxsiy himoya kiyimlari insondagi infeksiyaning kirish darvozasi xisoblangan organlar tana, koʻz va yuz, qoʻllar, oyoqlar, nafas yoʻllari organlarini turli tashqi taʼsir va infeksiyalardan ximoya qilishiga qoʻyiladigan talablarning oʻrganishdan iborat.

Tekshirish materiallari: Normativ-huquqiy hujjatlar (Sanitariya qoidalar va meʼyorlari (SanPiN), Sogʻliqni saqlash vazirligi koʻrsatmalari, World Health Organization (JSST) tavsiyalari), Ilmiy adabiyotlar va manbalar. Shaxsiy himoya vositalari (SHHV) namunalari, oʻlatga qarshi xalatlar, lateks, nitril va vinil qoʻlqoplar, respiratorlar (N95, FFP2), himoya koʻzoynaklari va yuz ekranlari, himoya poyabzallari.

Tekshirish usullari: Tahliliy (analitik) usul, ilmiy adabiyotlar va meʼyoriy hujjatlarni tahlil qilindi, turli ShHV turlarini solishtirildi, afzallik va kamchiliklarni aniqlandi, Obʼektiv va subʼektiv solishtirma tahlil usuli orqali olib borildi.

Muhokama: SHHVlar quyidagi holatlarda qoʻllaniladi: biologik patogenlar bilan ishlashda, patogen mikroorganizmlar aerozollar hosil boʻlishi ehtimoli boʻlganda va kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida.

Laboratoriyalarda qoʻllaniladigan asosiy SHHVlar tarkibi:

1. oʻlatga qarshi xalat
2. qoʻlqoplar
3. himoya poyabzali
4. koʻz va yuz himoya ekranlari
5. niqoblar va respiratorlar

Oʻlatga qarshi xalat — oʻta xavfli yuqumli kasalliklar (ayniqsa oʻlat, vabo, tulyaremiya, virusli gemorragik isitmalar va boshqalar) bilan ishlashda tibbiyot xodimlari va laboratoriya mutaxassislarini patogen mikroorganizmdan himoya qilish uchun moʻljallangan maxsus

himoya kiyimi hisoblanadi. U patogen mikroorganizmlar, aerozollar va biologik suyuqliklar bilan kontakti cheklashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar: O'latga qarshi xalatga qo'yiladigan asosiy talablar: a) *Materialga qo'yiladigan talablar*, xalat biologik suyuqliklar o'tkazmaydigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, material dezinfeksiya vositalariga chidamli bo'lishi lozim, tarkibi mustahkam va yirtilishga chidamli bo'lishi kerak, material aerozol va mikroorganizmlarning o'tishini cheklashi zarur. b) *Konstruksiyaga qo'yiladigan talablar*, xalat uzun va tanaga to'liq yopiladigan bo'lishi kerak, uzun yengli va yenglari manjetli bo'lishi lozim, old qismi tugma yoki bog'ichlar bilan mahkam yopiladigan bo'lishi kerak, xalat tizzadan past bo'lishi va tana kiyimlarini to'liq yopishi lozim, zarur hollarda kapyushonli (boshni himoya qiluvchi) turlari ishlatiladi. v) *Gigienik talablar*, xalat faqat laboratoriya yoki zararli zonada kiyilishi kerak, ish tugagandan keyin dezinfeksiya qilinishi yoki utilizatsiya qilinishi lozim, kontaminatsiya bo'lgan taqdirda darhol almashtirilishi kerak, g) *Xavfsizlik talablari*, xalat boshqa ShHVlari bilan mos kelishi kerak (qo'lqop, respirator, ko'zoynak), yenglari qo'lqop ustidan tushishi lozim, xalat harakatga xalaqit bermasligi, biroq himoyani ta'minlashi kerak. d) *Zararsizlantirish va saqlash talablari*, qayta ishlatiladigan xalatlar avtoklavda sterilizatsiya qilinishi mumkin, dezinfeksiyadan keyin alohida joyda saqlanishi kerak, zararlangan xalatlar maxsus konteynerlarda yig'iladi.

Qo'llar tibbiy yordam va laboratoriyada ishlashda eng ko'p zararlanishi mumkin bo'lgan organ hisoblanadi, shuning uchun ish jarayonida qo'lqoplardan foidalanish kerak. Qo'lqoplar turlari: lateks, nitril, vinil va boshqa turlari bor. Qo'lqoplar ishlatishdan oldin tekshirilishi, bir martalik bo'lsa qayta ishlatilmasligi, ishdan keyin utilizatsiya qilinishi lozim.

Qo'lqoplarga qo'yiladigan asosiy talablar: a) *Materialga qo'yiladigan talablar*, qo'lqoplar biologik patogenlar va mikroorganizmlarni o'tkazmaydigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, material mustahkam va yirtilishga chidamli bo'lishi lozim, qo'lqoplar kimyoviy moddalar ta'siriga nisbatan barqaror bo'lishi kerak, eng ko'p ishlatiladigan materiallar, nitril, lateks va vinil xisoblanadi. b) *Hajm va moslik talablari*, qo'lqoplar ishlatuvchining qo'lga mos o'lchamda bo'lishi kerak, juda tor yoki juda katta qo'lqoplar ishlashda noqulaylik tug'diradi va himoya darajasini kamaytiradi, qo'lqoplar qo'l harakatini cheklamasligi kerak. v) *Butunlik va sifat talablari*, qo'lqoplar teshiklar, yirtilgan joylar yoki nuqsonlarsiz bo'lishi kerak, ishlatishdan oldin vizual tekshiruvdan o'tkazilishi lozim, qo'lqoplar steril yoki toza holatda bo'lishi kerak. g) *Qo'llash talablari*, qo'lqoplar patogen materiallar bilan ishlashda majburiy hisoblanadi, qo'lqoplar bir martalik ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lsa, qayta ishlatilmasligi kerak, agar qo'lqoplar iflansansa yoki shikastlansa, darhol almashtirilishi lozim. d) *Gigienik talablar*, qo'lqoplar laboratoriyadan tashqari joylarda kiyilmasligi kerak, qo'lqoplar yechilgandan keyin qo'llar albatta yuvilishi lozim, qo'lqoplar biologik chiqindilar uchun mo'ljallangan maxsus konteynerlarda utilizatsiya qilinadi. ye) *Qo'shimcha himoya talablari*, ayrim hollarda ikki qavat qo'lqop qo'llanilishi mumkin, agar kimyoviy yoki mexanik xavf mavjud bo'lsa, maxsus himoya qo'lqoplari ishlatiladi.

Himoya poyabzal laboratoriya, tibbiyot muassasalari va xavfli yuqumli muhitlarda ishlovchi xodimlarning oyoqlarini patogen mikroorganizmlar, kimyoviy moddalar, suyuqliklar va mexanik ta'sirlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan shaxsiy himoya vositalaridan biri hisoblanadi. Ximoya poyabzali ish jarayonida xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Himoya poyabzaliga qo'yiladigan asosiy talablar: a) *Himoya xususiyatlariga qo'yiladigan talablar*, poyabzal oyoqning ustki qismini to'liq qoplashi kerak, poyabzal biologik va kimyoviy

moddalarning oyoqqa tushishini oldini olishi lozim, poyabzal suyuqliklarni o'tkazmaydigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, poyabzal sirg'alishga qarshi taglikka ega bo'lishi lozim. *b)Materialga qo'yiladigan talablar*, poyabzal mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, material dezinfeksiya vositalari ta'siriga bardoshli bo'lishi lozim, poyabzal oson tozalanadigan va yuviladigan bo'lishi kerak. *v)Qulaylik talablari*, poyabzal ishlovchining oyog'iga mos va qulay bo'lishi kerak, u uzoq vaqt ishlashda noqulaylik tug'dirmasligi lozim, poyabzal harakatlanishni cheklamasligi kerak. *g)Gigienik talablar*, poyabzal laboratoriya yoki ish zonasidagina ishlatilishi kerak, u muntazam ravishda tozalanishi va dezinfeksiya qilinishi lozim, ifloslangan yoki shikastlangan poyabzal almashtirilishi kerak.

Ko'z va yuzni himoya qilish uchun ishlatadigan ekran (himoya yuz uqitogi) laboratoriya va tibbiyot amaliyotida ko'z va yuzni patogen mikroorganizmlar, kimyoviy moddalar, aerosol va suyuqlik tomchilaridan himoya qilish uchun qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari hisoblanadi. Ular yuqumli bo'lgan materiallar bilan ishlashda ko'z va yuzning zararlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ko'zoynak va yuz himoya ekraniga qo'yiladigan asosiy talablar: *a)Himoya darajasiga qo'yiladigan talablar*, ko'zoynak va yuz himoya ekranlari ko'z va yuzni suyuqliklar, aerosollar va mayda zarrachalardan himoya qilishi kerak, ular biologik va kimyoviy moddalarning ko'zga tushishini oldini olishi lozim, shlemlar yuzning katta qismini qoplab, to'liq himoyani ta'minlashi kerak. *b)Materialga qo'yiladigan talablar*, ko'zoynak linzalari mustahkam va zarbaga chidamli materialdan (masalan, polikarbonat) tayyorlangan bo'lishi kerak. material shaffof va ko'rishni buzmasligi lozim, linzalar tirnash va kimyoviy moddalar ta'siriga nisbatan barqaror bo'lishi kerak. *v)Konstruksiyaga qo'yiladigan talablar*, ko'zoynaklar ko'zni to'liq qoplab, yon tomondan ham himoya qilishi kerak, himoya ekрани boshga mustahkam o'rnatilishi va yuzni to'liq yopishi lozim, ko'zoynak va yuz himoya ekрани boshqa SHHV vositalari (masalan, respirator) bilan mos kelishi kerak. *g)Qulaylik talablari*, ko'zoynak va yuz himoya ekranlar ishlatuvchi uchun qulay va yengil bo'lishi kerak, ular ko'rish maydonini cheklamasligi lozim, uzoq vaqt ishlatishda noqulaylik tug'dirmasligi kerak. *d)Gigienik talablar*, ko'zoynak va yuz himoya ekranlar muntazam tozalanishi va dezinfeksiya qilinishi kerak, agar ular ifloslansa, dezinfeksiyadan keyin qayta ishlatilishi mumkin, qattiq zararlangan yoki tirnalgan holatda almashtirilishi lozim. *ye)Qo'llash talablari*, ko'zoynak va yuz himoya ekranlar biologik materiallar bilan ishlashda, suyuqlik sochilishi ehtimoli bo'lgan holatlarda, aerosol hosil bo'ladigan jarayonlarda majburiy tarzda qo'llaniladi.

Nafas yo'llarini himoya qilish vositalari insonni havodagi patogenlardan himoya qiladi. Bularning asosiy turlariga, N95 respiratorlar, FFP2 respiratorlar, yarim niqoblar, to'liq yuz respiratorlari kiradi. Nafas yo'llarini himoya qilish uchun ishlatiladigan niqoblar (respiratorlar) laboratoriya va tibbiyot amaliyotida havo orqali yuquvchi patogen mikroorganizmlar, aerosollar va zararli zarrachalardan himoya qilish uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlashda nafas yo'llarini himoya qilish vositalari muhim ahamiyatga ega.

Nafas yo'llarini himoya qilish niqoblariga qo'yiladigan talablar: *a)Himoya darajasiga qo'yiladigan talablar*, niqoblar havodagi zararli zarrachalar va mikroorganizmlarni filtrlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, ular aerosol va patogen mikroorganizmlarning nafas yo'llariga kirishini kamaytirishi lozim, niqoblar xalqaro standartlarga (masalan, N95, FFP2, FFP3) muvofiq bo'lishi kerak, *b)Konstruksiyaga qo'yiladigan talablar*, niqob burun, og'iz va iyakni

to'liq qoplashi kerak, niqob yuzga mahkam yopishishi va havo chiqib ketishi uchun bo'sh joy qolmasligi lozim, niqob rezinka yoki bog'ichlar yordamida boshga mustahkam o'rnatilishi kerak. v) *Filtrlash qobiliyatiga qo'yiladigan talablar*, niqob yuqori samarali filtr materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak, filtr mikroorganizmlar va mayda zarrachalarni ushlab qolish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim, zarur hollarda almashtiriladigan filtrli respiratorlar qo'llanilishi mumkin. g) *Qulaylik talablari*, niqob nafas olishni qiyinlashtirmasligi kerak, u uzoq vaqt ishlatish uchun qulay va yengil bo'lishi lozim, niqob ko'zoynak va boshqa maxsus shaxsiy himoya vositalari bilan mos kelishi kerak. d) *Qo'llash talablari*, niqoblar aerosol hosil bo'lishi mumkin bo'lgan laboratoriya ishlarida ishlatiladi, o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlashda majburiy tarzda qo'llaniladi, niqob ifloslanganda yoki namlangan holatda almashtirilishi kerak. e) *Gigienik talablar*, bir martalik niqoblar qayta ishlatilmasligi kerak, qayta ishlatiladigan respiratorlar tozalanishi va dezinfeksiya qilinishi lozim, niqobni yechgandan keyin qo'llar yuvilishi kerak.

ShHVdan samarali foydalanish uchun ShHVni to'g'ri tozalash, dezinfeksiya qilish va saqlash qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etiladi.

1) *ShHVni tozalashga qo'yiladigan talablar*, qayta ishlatiladigan SHHV ishlatilgandan keyin tozalanishi va dezinfeksiya qilinishi kerak, dezinfeksiya jarayoni ishlatilayotgan material turiga mos dezinfeksiya vositalari bilan amalga oshi rilishi lozim, biologik moddalar bilan ifloslangan SHHV maxsus dezinfeksiya eritmalari yoki avtoklav yordamida zararsizlantirilishi mumkin, tozalash jarayonida SHHV materialining buzilishi yoki zararlanishining oldi olinishi kerak, tozalashdan keyin vositalar yaxshilab yuvilib, quritilishi lozim.

2) *SHHVni saqlashga qo'yiladigan talablar*, SHHV toza va quruq joyda saqlanishi kerak, ular shaxsiy kiyimlardan alohida joyda saqlanishi lozim, SHHV maxsus shkaf yoki konteynerlarda joylashtirilishi kerak, qayta ishlatiladigan vositalar muntazam ravishda tekshirib turilishi lozim, saqlash jarayonida quyosh nurlari va yuqori harorat ta'siridan himoya qilinishi kerak.

3) *Utilizatsiya talablari*, bir martalik ShHV qayta ishlatilmasligi kerak, ifloslangan yoki shikastlangan vositalar biologik chiqindilar uchun mo'ljallangan maxsus konteynerlarda yig'ilib, utilizatsiya qilinishi lozim, zararlangan yoki ishlatishga yaroqsiz vositalar tegishli sanitar qoidalarga muvofiq yo'q qilinadi.

Xulosa: Maxsus shaxsiy himoya vositalari — o'latga qarshi xalat, qo'lqoplar, himoya poyabzali, ko'z va yuzni himoya qiluvchi ekranlar hamda respirator va niqoblar — inson organizmining turli qismlarini patogen mikroorganizmlar, aerozollar va biologik suyuqliklar ta'siridan muhofaza qilishga xizmat qiladi. Ushbu vositalarning samaradorligi ularning sifatli materiallardan tayyorlanganligi, belgilangan konstruksiya va gigienik talablarga javob berishi, shuningdek, ulardan to'g'ri foydalanish qoidalariga qat'iy amal qilinishi bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun MSHVni to'g'ri tanlash, ulardan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, sanitar-epidemiologik qoidalarga qat'iy rioya qilish yuqumli kasallik xavfini kamaytirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References

1. World Health Organization. Laboratory Biosafety Manual. 4th edition. Geneva: WHO; 2020.

2. "Laboratory biosafety refers to the containment principles, technologies and practices that are implemented to prevent unintentional exposure to biological agents and toxins or their accidental release." — WHO, Laboratory Biosafety Manual, 2020.
3. Campbell MJ. 1976–2010 йилларда NIH/OBA томонидан қайд этилган бахтсиз ҳодисалар, таъсирланишлар ва лабораторияда орттирилган инфекциялар таҳлили. *Appl Biosaf.* 2015;20(1):12–26.
4. Неъматова, Н. У. (2026). ОСОБЕННОСТИ ЭПИДЕМИОЛОГИИ ВНУТРИ БОЛЬНИЧНОЙ ВИЧ ИНФЕКЦИИ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ.
5. Coelho AC, García Díez J. Биотехнология соҳасидаги биологик хавфлар ва лабораторияда орттирилган инфекциялар. *Front Bioeng Biotechnol.* 2015; 3:56.
6. Choucraallah D ва бошқалар. Инсон патогенлари ва токсинларига лаборатория таъсирини кузатиш: Канада, 2018. *Can Commun Dis Rep.* 2019;45(9):244–51.
7. Siengsanant-Lamont J, Blacksell SD. Осиё-Тинч океани минтақасида лабораторияда орттирилган инфекциялар бўйича шарҳ. *Trop Med Infect Dis.* 2018;3(2).
8. Good microbiological practices and procedures (GMPP) 1: personal protective equipment (PPE) — ЖССТ биохавфсизлик видео серияси. Geneva: WHO; 2019.
9. Respiratory protective equipment at work: a practical guide. London: Health and Safety Executive; 2013.
10. ISO 374:2016. Protective gloves against dangerous chemicals and microorganisms.
11. . Centers for Disease Control and Prevention. Biosafety in Microbiological and Biomedical Laboratories. 6th edition. 2020.
12. NS, X. J. A. (2025). NEFT VA GAZ ISHLAB CHIQRISH SOHASIDA ISHLOVCHI XODIMLARNING SOG 'LIG 'IGA TA'SIR ETUVCHI EPIDEMIOLOGIK XAVF OMILLAR VA ULARNI OLDINI OLISH (Doctoral dissertation, O'zbekiston).
13. Xudoyqulov JB, X. N. (2025). O 'ZBEKISTONDA METAPNEVMOVIRUSNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIK CHORA TADBIRLAR.
14. Xudoyqulov Jonibek Bozorovich, M. G. S. (2025). QASHQADARYO VILOYATIDA QIZAMIQ KASALLIGI NING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI.
15. Худойкулов, Ж. Б., Абдукахарова, М. Ф., & Матназарова, Г. С. (2018). Факторы риска злокачественных новообразований и их профилактика. *Интернаука*, (44-1), 43-45.

**MEDICINEPROBLEMS.UZ-
TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 3 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI** elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com